

“BADOYE’ UL-BIDOYA” DEVONIDAGI “KO’NGLUM” RADIFLI G‘AZALLAR TAHLILI

Madirimova Gulfuza Ro‘zmatovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: gulfuzamadirimova@gmail.com

Tel: 99 729 92 06

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning g‘azallarida qofiya va radifning qo‘llanishi, o‘ziga xosligi, radifning g‘azal badiiyatida tutgan o‘rni, shoir badiiy niyatining, she‘rdagi asosiy g‘oya va mazmunning ochib berilishidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, radif, badiiyat, g‘oya, mazmun, ko‘ngul, ko‘z, oshiq, ma‘shuqa, ishq

Annotation: This article analyzes the use of rhyme and radif in the poems of Alisher Navoi, its peculiarity, the role of radif in the art of the poem, the importance of the poet in the revelation of the artistic intention, the main idea and content in the poem.

Keywords: gazal, radif, art, idea, meaning, heart, eye, love, meaning, desire

Аннотация: В данной статье анализируется использование рифмы и радифа в газелях Алишера Навои, их своеобразие, роль радифа в газельном искусстве и его значение в раскрытии художественного замысла поэта, основной идеи и содержания стихотворения.

Ключевые слова: газель, радиф, искусство, идея, содержание, сердце, глаз, любовь, любовь

Ma‘lumki, mumtoz g‘azaliyotda, lirik qahramon holatini ifodalash, ruhiy kechinmalarini tasvirlashda bir qator timsollardan foydalaniladi. Navoiy g‘azallarida gul, ko‘ngul, ko‘z kabi timsollarni radif sifatida qo‘llash orqali lirik

qahramon hissiy holati, ishq tug‘yonlarini yorqin, tasirchan aks ettiradi. Ko‘nglum radifli g‘azallar tahlili davomida radifning g‘azal mazmuni va g‘oyasini aks ettirishda, shoir badiiy niyatini ifodalashdagi ahamiyatining o‘ziga xosligiga guvoh bo‘lish mumkin. Navoiy ayrim g‘azallarida radifga asosiy “yuk”ni yuklaydiki, she’rdagi asosiy ta’kidni, aytilmoqchi bo‘lgan asosiy fikrga diqqatni qaratadi. Radif arabcha “izma iz keluvchi” degan ma’noni anglatib, bayt misralari oxirida qofiyadan keyin aynan takrorlanib keluvchi so‘z hisoblanadi. “Radiflar she’rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta’kidlash, o‘quvchi e’tiborini asosiy g‘oyaga jalb etib, shoir g‘oyaviy niyatini o‘quvchi qalbiga to‘laroq, chuqurroq yetkazish maqsadiga xizmat qiladi.” [3.236] Quyidagi g‘azalda ko‘nglum radifini qo‘llash orqali asosiy urg‘u oshiq ko‘ngliga qaratiladi:

*Bahor bo‘ldiyu gul mayli qilmadi ko‘nglum,
Ochildi g‘unchavu lekin ochilmadi ko‘nglum*

Bu baytda shoirona poetik manzara ko‘z oldimizda jonlanadi, bahor kelishi, butun olam go‘zallikka burkanishi, gullar ochilib, ifori butun olamni tutishi, xasta dillarga darmon bolishi holatlari ko‘z oldimizga keladi. Biroq oshiqning ko‘ngli bundan mustasno, “g‘uncha ochildi ammo ko‘nglim ochilmadi” deya go‘zal tasvir yuzaga keltiradi shoir. Keyingi baytda bu holning sababi oshkor bo‘ladi:

*Yuzung xayoli ila vola erdi andog‘kim,
Bahor kelganu ketganni bilmadi ko‘nglum.*

Oshiq ko‘ngli yor yuzining xayoli bilan band bo‘lib, unga shaydoli sabab bahor kelib ketganini ham sezmaydi, unga yozu qishu koklam kuz ham bir xil, yorining xayoli shunchalar uni band qilganki, atrofidagi o‘zgarishlarni idrok qilishga ham ojiz, butun olam go‘zalligiga ham befarq.

*Ko‘zumda jilva qilib, k‘onglum olmoq istadi gul,
Iting izicha ani ko‘zga ilmadi k‘onglum.*

Baytda juda chiroyli tasvir yaratilgan: oshiq iqroricha yor ishqida, hijronida azob chekayotgan ko‘ngliga yo‘l topishni, uning muhabbatiga erishishni istagan gulni oshiq ko‘ngli yorining iti izicha ham ko‘rmadi, unga befarq bo‘ldi, chunki uning o‘z yori,

ma'shuqasi bor. Bu o'rinda shoir ko'ngil olmoq, ko'zga ilmoq iboralarini qo'llash va ko'z, ko'ngul so'zlarining takrori orqali go'zal badiiyat namunasini yuzaga keltirgan. Oshiqning ko'ngli yoriga naqadar vafodorligi, undan o'zgasiga hatto qiyo boqmasligini xalqona iboralarni o'z o'rnida qo'llash orqali juda go'zal tasvirlaydi.

“Shoir o'zi ifodalagan kechinma va badiiy maqsadining asosini qofiya va radifda aks ettiradi. Radifning misra so'ngida kelishi va aynan takrordan iborat bo'lishi shoir maqsadining badiiy yechimi bo'lishi bilan birga she'ning asosiy qonuniyatlaridan biri bo'lmish ohangdorlikni ham yuzaga keltiradi.”[8.58]

Boshqa bir g'azalda ko'nglum radifi orqali shoir ishq olovida o'rtanayotgan ko'nglini vayronada yolg'izlikdan fig'on qilayotgan boyo'g'liga mengzaydi, yorining husnda tengsiz ekanligini, uning hajrida qolgan bu ruh, bu badan vayron bo'lganligi va badan ichra ko'ngil vayronada makon tutgan boyo'g'lidek fig'on qilayotganini tasvirlaydi:

*Badan vayronida ul husn ganji hajridin gohi,
Gah o'z yolg'uzligidin chug'zdek tortar fig'on ko'nglum.*

Quyidagi baytda esa shoir ishq ko'yida jon bergan oshiqlar Farhod va Majnun timsollarini keltirib, ishqining maqomi yuksalayotganini, go'yo ishq yo'lida tog'ni teshgan Farhod, cho'lu dashtni makon aylagan Majnunga o'xshab ketayotganligini iqrar qiladi:

*Maqomi gah balo tog'idurur, gohi fano dashti,
Ki ishq ichra berur Farhodu Majnundin nishon ko'nglum.*

Bu yerda talmeh badiiy vositasida juda go'zal manzara: Farhodning Shirin ishqida tog'dan suv chiqarishi, ayriliqqa chiday olmay boshini toshga urishi, Majnunning odamlar orasidan qochib dashtdan panohtopishi ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu o'rinda balo tog'i, fano dashti tasvirlari orqali ilohiy ishq manzilaridan so'z ochilgan. Yana bir g'azalda “*ko'nglum*” radifi yetti baytli g'azalga asos qilib olinganki, shoir “Yana firoq o'tig'a tushti toblig' ko'nglum” deya ko'nglining ayriliq azobida qovrilayotganini qalamga oladi:

Firoqu dard qachon tuzsa bazm kulbanda,

Berur ko 'zum mayi la'lu kaboblig' ko 'nglum.

Firoq va dard kulbamda bazm qilsa, ko'zim qonli yoshini may qilib, ko'nglum qovrilgan go'shtidan kabob tutadi deya juda g'aroyib tasvir yaratadi. Hijron azobida, yor ishqidan ayro ko'ngul qovrilib, kabob bo'lganligi, ko'zlari yig'layverganidan qonli yosh to'ka boshlaganini shu yo'sinda tasvirlaydi.

Firoq o'tig'a tushub dam-badam to'kar qon yosh,

Ki oxir o'lgusi o'z motamidatur ko'nglum

baytida oshiq ko'nglining yor ishqiga muftalo bo'lib, undan ayro ekanligidan, visolga erisholmaganidan qayg'uga botib, tinmay qon yosh to'kayotgani, bunday tinmay o'rtanishu azoblanish oxir-oqibat uni ado qilishini badiiy bo'yoqdor tasvirlaydi. Go'yoki ko'ngil aqlga ham bo'ysunmay qo'ygan, u faqat yori haqida o'ylaydi, undan ayro ekanligiga sira toqat qilolmaydi. Shoir ko'nglum deya qayta-qayta takror orqali, bu so'zni radif sifatida qo'llash orqali asosiy urg'uni ko'ngilga qaratadi. Oshiqning bu holga tushishiga yolg'iz u sabab, chunki u yori ishqida devonaga aylangan, uning hijronida butun olamni unutgan. Shu o'rinda g'azal mazmunini to'la ochib berishda radifning o'ziga xosligi va ahamiyati to'la namoyon bo'ladi. "G'azal qurilishidagi har bir detal shoir badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, bayt va misralarda o'z vaifasiga ega. Shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlovchi, she'rni ma'lum tizim asosida ushlab turuvchi kompozitsiya shoir badiiy maqsadi bilan birga she'r badiiyatini ta'minlab beradi. She'r kompozitsiyasida qofiya va vaznning o'rni muhim bo'lganidek, takrorlarga asoslanuvchi radifning ishtiroki ham ahamiyatli". [7.57] Har bir so'z, har bir unsur she'r badiiyati, mazmuni, shoir badiiy niyatini ochib berishda juda ahamiyatlidir. Alisher Navoiyning g'azallarida radif ham o'z o'rni va ahamiyatiga ega, u radif uchun so'zlarni shunchaki tanlamaydi, sh'erdagi asosiy g'oyani qofiya orqali, ayrim g'azallarda esa radif orqali ham ifodalishiga yuqoridagi g'azallar tahlili davomida guvoh bo'lishimiz mumkin. Radifning har baytda takror kelishi, qayta qayta diqqatni o'ziga qaratadi, shoir badiiy niyatining qaysi o'ringa qaratilayotganiga e'tiborni jalb qiladi. Navoiyning radif qo'llashdagi badiiy mahorati ham benazirdir, har

qaysi gʻazalda, hatto bir soʻz turli mazmun-mohiyat kasb etadi, turlicha poetik manzara yarata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 1 tom. Badoyiʻ ul-bidoya. Fan Toshkent 1987. B.724
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 4 tomlik. Fan Toshkent 1983
3. Hojiahmedov. A. Mumtoz badiiyat malohati Sharq Toshkent 1990 B.240
4. Hojiahmedov.A. Sheʻriy sanʻatlar va mumtoz qofiya. Sharq Toshkent 1998 B.160
5. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Toshkent.2022.Tamaddun. B.254
6. Hamroyeva. O. Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili. DSc dissertatsiyasi Toshkent 2022
- 7.. Hamroyeva. O. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. “Bookmany print” Toshkent 2022. B.156
8. Hamroyeva. O. Navoiyshunoslik(Navoiy lirikasining qofiya tizimi) “Bookmany print” Toshkent 2024 B 114